

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ



“ТУРИЗМ СОҲАСИГА САЙЁҲЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА МИЛЛИЙ  
ҲУНАРМАНДЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ”

“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ РЕМЕСЛЕННОЙ  
ПРОДУКЦИИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ТУРИСТОВ”

“PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF NATIONAL CRAFT PRODUCTS IN  
ATTRACTING TOURISTS”

МАВЗУСИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНМАТЕРИАЛЛАРИ ТўПЛАМИ

25 МАРТ 2023 ЙИЛ  
ТОШКЕНТ  
“TOTISOD-MOLIYA” 2023

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР  
ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ**



**“ТУРИЗМ СОҲАСИГА САЙЁҲЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА  
МИЛЛИЙ ҲУНАРМАНДЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ  
РЕМЕСЛЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ  
ТУРИСТОВ”**

**“PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF NATIONAL  
CRAFT PRODUCTS IN ATTRACTING TOURISTS”**

**МАВЗУСИДА ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН  
МАТЕРИАЛЛАРИ ТЎПЛАМИ**

**25 МАРТ 2023 ЙИЛ**

**ТОШКЕНТ  
“IQTISOD-MOLIYA”  
2023**

**УЎК: 338.2**

**КБК: 65.05**

**Тақризчилар:** Академик С.С.Гулямов  
и.ф.д., проф. Т.Т.Жўраев

**и.ф.д., проф. Т.З.Тешабаевнинг умумий раҳбарлиги остида**

**Таҳрир ҳайъати аъзолари:** проф. С.Мехмонов, доц. А.Исламкулов, доц. Ш. Синдаров  
проф. А.Пардаев, доц. Ғ.Сафаров, проф. Ф.Назарова, доц. Ш.Аллаяровва “Менежмент  
ва маркетинг” кафедрасининг барча профессор-ўқитувчилари.

Ушбу илмий маъруза тезислари тўпламида ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашда туризм соҳасига сайёҳларни жалб қилишда миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини ривожлантириш истиқболлари бўйича аниқ ечимлар, шунингдек мамлакатимиз ҳамда хорижий йирик иқтисодчи олимлар, тажрибали амалиётчилар, олий ўқув юртларининг профессор-ўқитувчилари, илмий тадқиқот институтлари ва марказларининг етакчи илмий ходимлари, докторант ва мустақил изланувчиларнинг илмий тадқиқот иши натижалари мужассамлашган.

Ушбу нашрда келтирилган барча маълумотлар ва фикр-мулоҳазалар муаллифларга тегишли бўлиб, таҳрир ҳайъати аъзоларининг фикрига мос келмаслиги мумкин. Нашрда келтирилган рақамлар, статистик маълумотлар, фикр-мулоҳазалар учун муаллифлар масъул ҳисобланади.

**УЎК: 338.2**

**КБК: 65.05**

**ISBN 978-9943-13-999-7**

**© Тошкент молия институти, 2023**

**© “IQTISOD-MOLIYA”, 2023**

народных промыслов Узбекистана. Потому что выполнение этих работ позволит решить проблемы обеспечения занятости сельского населения, особенно женщин. В то же время он создает основу для увеличения доходов населения и стабилизации социальной ситуации. В результате коконная промышленность будет развиваться на основе ремесленничества и увеличится объем готовых шелковых изделий на экспорт, в то же время позволяет привлекать туристов.

#### **Список литературы:**

1.Артикова С. Формирование и повышение эффективности регионального подкомплекса шелк АПК в Узбекистана в условиях перехода рыночным отношениям. и.ф.д., дисс. -Т.1991.

2.Ўроқов Ш. Бозор иқтисодиёти шароитида пиллачилик тармоғи ривожланиш истиболларини белгилаш. и.ф.н.дисс.Т.2005. Б-14

3. <https://www.uzbekipaksanoat.uz/>

## **HUNARMANGLARNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH MAMLAKATGA SAYYOHLARNI JALB QILISH VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA**

**Ibragimov Nutfillo Salimovich**

**BuxDU “Turizm va mehmonxona xo‘jaligi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.**

Hunarmandchilik va uning turizm rivojlanishdagi roli barcha mamlakatlarning kuchli madaniy merosining bir qismi sanaladi. Dunyoning ko‘p mamlakatlari hunarmandchilikni turizmni rivojlantirishning asosiy vositasi deb bilishadi va yirik hunarmandchilik ishlab chiqarish markazlariga yaqin hududlarda turizm obyektlarini tashkil etib kelishgan. O‘zbek hunarmandlari dunyoga hunarmandchilik mahsulotlari xilma-xilligi, nafisligi, o‘zlarining mahorati bilan mashhur. Hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy ehtiyojlarini, balki insonning estetik istagini ham qondiradi.

Hunarmandchilikda biznes muhitini yaxshilash va kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini oshirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda Hunarmandlar uyushmasi tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar umumiy soni 1146 nafarni tashkil etadi<sup>64</sup>.

**Mavzuning dolzarbligi.** Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti tomonidan ushbu sohani qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilinib kelinmoqda. Bunga yaqqol misol tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli: “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonida keltirilgan davlat dasturida xususiy sektorning eksportdagi ulushini oshirish, shuningdek

---

<sup>64</sup> <https://hunar.uz/>

dasturning ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalarida hunarmandlar mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama qilish xarajatlarini eksportni rag‘batlantirish agentligi mablag‘lari hisobidan qoplab berish kabi amalga oshirish mexanizmlari ta’kidlab o‘tilgan<sup>65</sup>.

**Mavzuga oid mavjud muammolar.** Hunarmandchilik mahsulotlari sayyohlik tajribasining ajralmas qismini tashkil etib, ular mahalliy aholi an‘analarini ifodalaydi va qimmatbaho suvenir mahsulotlari hisoblanadi. Ko‘p mamlakatlar hunarmandchilik mahsulotlaridan mo‘maygina foyda ko‘radi, shuningdek ushbu mahsulotlar madaniy turizmning bir qismi bo‘lib, ular mamlakat uchun daromad manbai va mahalliy aholini ish o‘rinlari bilan ta‘minlashga xizmat qiladi. Sayyohlarning turli madaniyatlar bilan tanishish va tajriba qilish istagi ularning materiallari va nomoddiy ifodalari ulkan o‘sishi ortida kuchli turtki hisoblanadi. Madaniy meros turizmi ayrim komponentlarning mavjudligiga asoslanadi; bular moddiy va nomoddiy deb tasniflanadi. Moddiy qism harakatsiz resurslarni (qurilgan madaniy meros obyektlari, landshaftlar va madaniy obyektlar sifatida) o‘z ichiga oladi va harakatlanuvchi elementlar (hunarmandchilik mahsulotlari, ommaviy axborot vositalari va iste‘mol tovarlari sifatida), madaniy jihatlarining nomoddiy guruhi - badiiy ifodalar, tillar, mavjud madaniyatlar, folklor va boshqalardan tashkil topadi<sup>66</sup>. Moddiy va nomoddiy madaniy meros birgalikda jahon madaniy an‘analari boyligi va xilma-xilligini ifodalaydi. Ko‘pgina sayyohlar an‘anaviy hunarmandchilik buyumlari sotiladigan do‘kon yoki ustaxonada to‘xtashadi. "Hunarmandchilik" ular mahalliy urf-odatlar va mahalliy aholining ramziy ma‘nosini anglatadi

Hunarmandchilik mahsulotlari sayyohlar tomonidan ajoyib xotiralarni uyg‘otishdan tashqari, yaxshi sifatli suvenirlar, uni ko‘rgan boshqa odamlarning o‘sha destinasiyalarga tashrif buyurishga qiziqishini uyg‘otadi. Qo‘lda ishlangan buyumlar moddiy komponentlar va hunarmandchilik nomoddiy narsalar sifatida madaniyatda turizmga safarbar qilingan resurslar qatoriga kiradi. Ushbu resurslardan turizm uchun foydalanish barqaror rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega. Bunday an‘anaviy san‘at buyumlarini ishlab chiqarish ham daromad keltiradi, ham aholini doimiy ish bilan ta‘minlashga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.08.2013 yildagi PQ-2022-son Farmoni bilan Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki tomonidan Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu jamg‘armaning asosiy vazifalari bo‘lgan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari oshirishda huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatish tashqi bozorlarda zamonaviy, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksportga rag‘batlantirishdan iborat.

Hunarmandlarning ishlab chiqargan mahsulotlari eksportini amalga oshirishda duch keladigan muammolariga quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Hunarmandlar va xodimlarning eksport uchun zarur bilim va tajribaning yetishmasligi;
2. Tashqi bozorlarga chiqish xarajatlarining yuqoriligi (yuqori transport va logistika xarajatlari, korxonalarining zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish xarajatlari va sifat standartlari);

<sup>65</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

<sup>66</sup> Ratanakomut, S. (2006, May). Community awareness and cultural tourism sustainability. In *APEC Study center Consortium Conference Ho Chi Minh City Viet Nam* (pp. 23-24).

3. Xorijiy bozorlar bo'yicha mavjud ma'lumotlarning yo'qligi (sertifikatlash talablari va mahsulot sifati, raqobat va talab holati);
4. Chet el ko'rgazma-yarmarkalarida ishtirok etishda cheklanganlik.
5. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning narx va sifat jihatidan past raqobatbardoshligi;
6. Tashqi bozorga chiqishdagi qiyinchiliklarning mavjudligi;
7. Aylanma mablag'larning yetishmasligi va kredit resurslaridan foydalanishning cheklanganligi;
8. Yuqori bojxona to'lovlari va kam miqdordagi kvotalarning belgilanishi;
9. Eksportni rag'batlantirish bo'yicha loyiha va dasturlar haqida yetarlicha ma'lumot yo'qligi.

**Muammoni hal qilish usullari:** O'zbekiston Respublikasida sohani rivojlantirish bo'yicha uning salohiyatini maksimal darajada oshirish ustida faol ishlar olib borilmoqda. Ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun hukumatda bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabr kuni "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-77-sonli qarori qabul qilindi<sup>67</sup>. Ushbu chora-tadbirlarga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- yillik eksport hajmi 20 million dollardan oshgan korxonalariga bir martalik moliyaviy resurslar 5 mln. dollar miqdorida taqdim etilishi;
- ayrim korxonalariga bojxona to'lovlari 120 kungacha kechiktirib to'lashga ruxsat berilishi;
- ayrim mahsulotlar importida milliy sertifikat olish tartibi bekor qilinishi;
- investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yildan boshlab, har yili "O'zekspomarkaz" pavilonlarida "Craft fair Uzbekistan" xalqaro hunarmandchilik mahsulotlari va texnologiyalari yarmarkasini tashkil etib borilishi;
- savdo pavilonlari orqali hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olish hamda realizatsiya va eksport qilish ishlarini tizimli tashkil etish;
- milliy hunarmandchilik, xalq amaliy va badiiy san'ati tarixi hamda mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan videoroliklar va "Milliy hunarmandchilik jurnali"ni tayyorlab, yiliga kamida ikki marotaba yangilab borish;
- hunarmandlar mahsulotlarni soddalashtirilgan tartibda olib chiqishlari va yukni 25% chegirma bilan olib o'tishlari mumkin, ya'ni xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov va yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlari olib chiqilishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizom (2.05.2018 yilda 3004-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) e'lon qilingan. Hujjat tashqi savdo, tashqi ishlar va madaniyat vazirliklari, shuningdek Davlat bojxona qo'mitasining qo'shma qarori bilan tasdiqlangan;
- hunarmandlar tomonidan tayyorlangan pichoqchilik, shuningdek, o'choq, bolta, cho'yan qozon kabi eksportbop mahsulotlarni eksportga tashish xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish kabilar.

<sup>67</sup> <https://lex.uz/docs/-5807559>

Biroq, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, eksportni rag‘batlantiruvchi tashkilotlar, nisbatan kam ish tajribasining kuchi eksportni ilgari surish xizmatlarining keng doirasini taqdim etish salohiyatiga ega emas.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarini amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- **Texnik yordam dasturlari:** xodimlarni malakasini oshirish, mahsulotlarni eksportga chiqarish va ularning raqobatbardoshligini oshirishda maslahatlar berish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish va sifat standartlari tashkil etish,

- **Marketing bo‘yicha:** marketing tadqiqotlari va konsalting, chet elda savdo ko‘rgazmalari ishtirok etishni rag‘batlantirish, kichik korxonalaridan eksport qilishda hamkorlar va yetkazib beruvchilarni izlash, bozorni o‘rganish, mahsulotlarni sotish, mahsulot tashqi ko‘rinishini takomillashtirish va qadoqlash tizimlarini joriy etish.

- **Ishlab chiqarish va sifat bo‘yicha:** texnologiyani takomillashtirish, sifatni yaxshilash, yangi uskunalarni o‘rnatish, assortimentni kengaytirish;

- **Boshqaruv bo‘yicha:** yuridik maslahat, hujjatlarni rasmiylashtirish, logistika va transport yo‘nalishlarida bir qancha chora-tadbirlar tashkil etish zarur.

**Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar:** Ushbu hunarmandlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha olib borilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar yig‘indisini strategiya sifatida qo‘llashni taklif etgan bo‘lar edik. Biz strategiyani tushunish oson bo‘lishi va har bir mavzuni yoritib, muammolarni hal qilish uchun turli darajalarda 15 taga ajratdik (1-shakl).

<b>Ta‘minot strategiyasi</b>	Hudud darajasida strategiya va hunarmand-chilik bilan bog‘liq strategiyalar; •Mintaqaviy darajada strategiya; •Milliy darajada strategiya; • Barqaror hunarmand-chilik bilan bog‘liq Strategiyalar	<b>Mintaqaviy strategiya</b>	alqaro daraja Strategiya; • institutsional strategiya; Raqamli va bozor strategiyasi; • Elektron biznes strategiyalari;	<b>Xalqaro strategiya</b>	•Bozor darajasi strategiya; •Hunarmand va hchi kuchi darajasi strategiya; •An‘ana va meros darajasi strategiya; Ishlab chiqaruvchi darajasida strategiyalar;	<b>Mijoz va hunarmandga asoslangan</b>	eksportni kuchaytirish uchun strategiyalar; •elektron texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha strategiyalar; •Mijoz darajasi strategiya
------------------------------	---	------------------------------	--	---------------------------	---	--	---

**1-rasm. Strategiyalarning turli darajalari**

Eksportni kuchaytirish uchun strategiyalar doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi:

- Mamlakat hududida hunarmandchilik stipendiyasi va xalqaro dasturlar tashkil qilinishi va hunarmandlarni jalb qilishi kerak;

- O‘zbekistonning boshqa davlatlar bilan xalqaro aloqalari yaxshi bo‘lishi kerak, chunki mavjud bo‘lganda bir mamlakatning madaniyati va an‘analarini boshqa mamlakat bilan to‘g‘ri almashish evaziga hunarmandchilik mahsuloti eksporti ushbu

mamlakatlarda mavjud bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlarda eksport-import siyosati an’analarini yo‘lga qo‘yish, hunarmandchilik sanoati bilan bog‘liq yumshoq siyosat amalga oshirilishi kerak;

- Maktab o‘quv dasturida aniq fanlari kabi, hunarmandchilik ham bo‘lishi, maktab ta’limiga fan sifatida kiritilishi kerak;
- onlayn hunarmandchilik kurslarini tashkil etish orqali aholini qiziqtirib, hunar egallashga da’vat etish;
- Gazeta, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda har kuni o‘zlarining mahalliy hunarmandchilik sanoati mahsulotlarini nashr etishlari kerak;
- Sohada litsenziyalash tizimi butunlay olib tashlanishi kerak, ushbu mahsulotlar litsenziya tizimi o‘rniga sertifikatlashtirishni rivojlantirishni rag‘batlantirishi kerak;
- Eksportni kuchaytirish uchun import qiluvchilar va eksport qiluvchilar uchun tegishli shartlar bo‘lishi kerak: (a) har qanday mahsulot eksportchisi 20% hunarmandchilik mahsulotlarini boshqa mamlakatda sotadi; va (b) har qanday import qiluvchi hamkorlikni rivojlantirish uchun mahsulot O‘zbek hunarmandchiligi mahsulotlarining kamida 24 foizini import qilishi kerak bo‘ladi;
- Craft qishloqlari va hunarmandchilik universitetlari tashkil etilib oliy ma’lumotli, yuqori malakali kadrlar sohaga jalb qilinishi kerak.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki hunarmandlar har tomonlama tashqi yordamga muhtoj va ular faoliyatini rag‘batlantirish davlat darajasida tashkillashtirilsa samaradorligi ancha yuqori bo‘ladi. Shunga ko‘ra, eksportni rag‘batlantirish bilan shug‘ullanuvchi idora va tashkilotlar keng doiradagi mutaxassislarni jalb qilish tavsiya etiladi: marketologlar, texnologlar, huquqshunoslar va shuningdek, xodimlarning malaksini oshirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazadigan korxonalar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Barber T, Krivoslykova M. Global Market Assessment for Handicrafts. United States Agency for International Development, July 2006.
2. Mahapatra S, Dash M. Problems Associated with Artisans in Making of Handicrafts in Orissa, India, 2011; 6(1)
3. Parnwell, M. J. (2018). Tourism and rural handicrafts in Thailand 1. In *tourism in south-east Asia* (pp. 234-257). Routledge.
4. Ostonov, O. A., Akhmedov, K. A., Khushvaktov, K. O., & Norimovich, K. K. (2020). Some features of the development of national crafts on the basis of tourism in Uzbekistan. *Journal of Critical Reviews*, 7(11), 1256-1261.
5. Ratanakomut, S. (2006, May). Community awareness and cultural tourism sustainability. In *APEC Study center Consortium Conference Ho Chi Minh City Viet Nam* (pp. 23-24).
6. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
7. <https://hunar.uz/> - “Hunarmand” uyushmasi rasmiy sayti



	ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ .....	
<b>55</b>	<i>Xonkeldiyeva.K,Sultonova.N.</i> TURIZM SOHASIGA SAYYOHNLARNI JALB QILISHDAN HUNARMANDCHILIKDAN FOYDALANISH.....	<b>233</b>
<b>56</b>	<i>Baxramov.A</i> OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF DIGITAL TOURISM IN INDUSTRIAL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN.....	<b>236</b>
<b>57</b>	<i>Н.А.Алиева , М.Д.Глеумуратова</i> РОЛЬ ШЕЛКОВОДСТВА ПО УВЕЛИЧЕНИЮ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕМЕСЛЕННИКОВ ДЛЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ТУРИСТОВ....	<b>242</b>
<b>58</b>	<i>Ibragimov.N</i> HUNARMANDLARNING EKSPORT SALONIYATINI OSHIRISH MAMLAKATGA SAYYOHNLARNI JALB QILISH VOSITALARIDAN BIRI SIFATIDA....	<b>245</b>
<b>59</b>	<i>Хонкелдиева Г, Каххорова М.</i> РАЗВИТИЕ ЭКОТУРИЗМА ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	<b>250</b>
<b>60</b>	<i>Хонкелдиева Г, Каххорова М</i> ХАРАКТЕРИСТИКА АГРОТУРИСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРОЦЕССЫ ЕЁ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ.....	<b>253</b>
<b>61</b>	<i>Мухамеджанова.М</i> О'ZBEKISTON TURIZMINI MUSTAQIL VA UYUSHGAN SAYYOHNLAR SEGMENTIGA MOSLASHTIRISH.....	<b>257</b>
<b>62</b>	<i>Ходжаева Д.</i> КЛАССИФИКАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ТУРИЗМА.....	<b>259</b>
<b>63</b>	<i>Ergashev J,Xolmatovov.D</i> THE IMPACT OF DIGITAL MARKETING TO TOURISM ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА НА ТУРИЗМА RAQAMLI MARKETINGNI TURIZMGA TA'SIRI.....	<b>264</b>
<b>64</b>	<i>Axrorova N,Mamatov.M</i> TURIZM VA MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI....	<b>266</b>
<b>65</b>	<i>Ergasheva.A</i> MILLIY HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI SOTISHDA RAQAMLI MARKETING...	<b>269</b>
<b>66</b>	<i>Sultanova M.</i> MARG'ILON IPAKCHILIGINING TURISTIK AHAMIYATINI OSHIRISH.....	<b>272</b>
<b>67</b>	<i>Кулибоев А.</i> ТИББИЙ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ.....	<b>275</b>
<b>68</b>	<i>Ivanovich.K,Saminjonov.A</i> МАМЛАКТИМИЗДА TURIZM	<b>278</b>